# BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI TA’LIM TENOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (TABIATSHUNOSLIK FANI MISOLIDA)

**Sh.Norqulov**
Guliston davlat pedagogika instituti
“Pedagogika” fakulteti dekani, dotsent
**J.Ro‘zimatov**
Guliston davlat pedagogika instituti, stajyor o‘qituvchisi
e-mail: jamshidrozmatov1313@gmail.com

Annotatsiya: Jahonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni metodik jihatdan takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga molik. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tabiatshunoslik o‘qitish metodikasidan innovatsion jarayonlarni loyihalashtirish faoliyatiga tayyorlash, o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish qonuniyatlari, didaktik tamoyillari, metodikasini takomillashtirish hamda ilg‘or xorijiy tajriba-larni boshlang‘ich ta’limga tadbiq qilish zarurati izohlanadi.

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, innovatsiya, raqamli axborot texnologiyalari, tabiiy fanlar, nazariya, metodika, kreativlik.

Abstract: Methodologically improving the preparation of future elementary school teachers for innovative professional activities, training of wide-profile specialists, carrying out scientific research works on the development of students' creativity, professional competence, and natural-scientific worldview are of particular importance in the world. From this point of view, it is explained the need to prepare future elementary school teachers for the activity of designing innovative processes from the methodology of natural science teaching, to improve the laws, didactic principles and methodology of increasing the effectiveness of educational activities, and to apply advanced foreign experiences to primary education.

Key words: elementary school, innovation, digital information technologies, natural sciences, theory, methodology, creativity.

Bugungi kunda dunyo miqyosida bo‘lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy ta’lim tizimi intensiv yangilanish dinamikasiga moslashtirish, innovatsion raqamli samarador ta’lim texnologiyalar asosida takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlari doirasida tabiiy-ilmiy savodxonligini orttirish sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha «Ma’rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish» to‘g‘risidagi bitimida dunyo miqyosida ta’lim oluvchilarni o‘qitish sifatiga nisbatan keng sharoitlar yaratish, ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini zamonaviy texnologiyalar bilan kasbiy faoliyatga tayyorlash, shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalarini metodik jihatdan takomillashtirish, keng profilli mutaxassislar tayyorlash, talabalarning kreativligi, kasbiy kompetentligi, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish alohida ahamiyatga molik. Shu jihatdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikdan innovasion jarayonlarni loyihalashtirish faoliyatiga tayyorlash,

o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish qonuniyatlari, didaktik tamoyillari, metodikasini takomillashtirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni boshlang‘ich ta’limga tadbiq qilish zarurati bilan izohlanadi.

Hozirda mamlakatimizda zamonaviy ta’lim texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga ko‘tarish masalalariga oid tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda « Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligi, sifati va samaradorligini ta’minlash maqsadida “aqlli tartibga solish” modeli elementlarini qo‘llash doirasida, huquq tizimining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotning yangi drayverlarini harakatga keltirish doirasida zamonaviy texnologiyalarga va raqamli faoliyatga bo‘lgan talab»[1] kabi muhim vazifalar belgilandi. Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tabiat-shunoslik fanini o‘qitishda innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomil-lashtirish, ta’limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlash, o‘qitish sifati va samaradorligini ko‘tarish, xalqaro standartlarga moslashtirish, tabiiy-ilmiy savodxonlikni orttirish, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish alohi-da ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi 576-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son., O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Yevropa mamlakatlarida F.S.Azevedo, L.Darling-Hammond, A.J.Egalite, B.Kisida, D.S.Yeager, G.M.Walton, P.Cantorand, P.Carter, L.Darling-Hammond, R.D.Taylorand, A.A.West, A.Wigfield, J.Cambria, C.A.Wolters tomonidan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihatlari o‘rganilgan.

MDH mamlakatlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini hamda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish muammolari M.S.Axmadov, T.A.Vayzer, S.G.Grigoreva, N.G.Kalashnikova, E.F.Kozina, E.V.Kuznesova, V.V.Levites, S.A.Radionova, D.Z.Raxmonova, S.P.Russkoe, O.N.Ulyanova; boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kreativ kompetentligining o‘ziga xos xususiyatlari T.V.Sunyaykina, Yu.A. Sergienko, G.A.Chomaeva kabilar tomonidan o‘rganilgan.

Respublikamizda boshlang‘ich ta’limda o‘qitish, zamonaviy ta’lim metodlari masalalari R.Ibragimov, R.Mavlonova, N.Raxmankulova, R.Safarova, M.Inoyatova, M.I.Toshpulatova, U.A.Masharipova, tabiatshunoslik o‘qitish metodikasini takomillashtirish muammolari M.I.Nuritdinova, tabiatshunoslik o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari va metodlari Sh.Mirzaxmatova, D.Po‘latova, X.B.Norbo‘tayev va boshqa tomonidan tadqiq etilgan.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi natijalarining ahamiyati zamonaviy ta’lim texnologiyarining nazariy, amaliy, metodik, didaktik, texnologik ko‘rsatkichlari, darajalari va baholash mezonlari o‘rganilgani, shuningdek, “Tabiiy fanlar nazariyasi va metodikasi” fanidan darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dastur-larini ishlab chiqishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik ta’minoti, elektron ta’lim resursidan foydalanish mumkin-ligi hech kimga sir emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi/O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son. 8-maqsad 3-band.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi 576-son Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son Qarori.

4. Elmuratova D.M Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash (Tabiatshunoslik fani misolida).- Toshkent, 2020-y. 11-16 s.

5. Ruzimatov, J. (2024). The role of using digital educational technologies in methodical training of future primary school teachers. *Евразийский журнал академических исследований*, *4*(3 Part 2), 109-113.

6. Ro‘zimatov, J., Norbo‘tayeva, O., Savrullayeva, M., Cho‘liyeva, A., & Usmonova, G. (2024). The role and importance of digital educational technologies for primary school students. *Modern Science and Research*, *3*(5), 480-484.

7. Ro‘zimatov, J. (2024). Bo‘lajak boshlang ‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, *3*(8), 72-78.

8. Jamshid, R. Z. (2024). Bo‘lajak boshlang ‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, *4*(4), 141-146.

9. Ruzimatov, J. (2024). Improving the methodology of using digital educational technologies of future primary class teachers. *NRJ*, *1*(3), 755-760.

10. Jamshid, R. Z., Ravshan, A., Sirojiddin, G., Gulizahro, T., & Azamat, Z. (2023). Developing effective approaches to the use of modern information technology in education.